

 SUPPORT SCIENCE	ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES journal homepage: https://www.supportscience.uz/index.php/ojss	
---	--	---

DISCUSSION OF THE "TURKESTAN ISSUE" IN THE DUMA AND GOVERNING BODIES

Bakhtiyor Boltabaev

PhD, Senior Lecturer

Namangan State University

Uzbekistan, Namangan

ABOUT ARTICLE

Key words: Duma activities, management issues, trade and industry, production, protests of the people of Turkestan, state registration of lands, Russian resettlement policy.

Received: 19.01.25

Accepted: 21.01.25

Published: 23.01.25

Abstract: This article discusses the dissatisfaction of the local population of Turkestan with the activities of the Duma, the policy of resettlement of the population from various regions of Russia to the territory of Turkestan, the problems arising from the settlement of Russians on the existing fertile lands in Turkestan, in addition, the issue of cotton in the territory of Turkestan, information on the development of industry and production.

DUMA VA BOSHQARUV ORGANLARIDA "TURKISTON MASALASI" MUXOKAMASI

Baxtiyor Boltabayev

PhD, katta o'qituvchi

Namangan davlat universiteti

O'zbekiston, Namangan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Duma faoliyati, boshqaruv masalalari, savdo va sanoat, ishlab chiqarish, Turkiston halqining noroziliklari, yerlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ruslarning ko'chirish siyosati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Turkiston maxalliy aholisining duma faoliyatidan norozi ekanliklari, Turkiston hududiga rossiyaning turli hududlarida aholining ko'chirish siyosati, Turkistondagi mavjud unumdor bo'lgan yerlarga ruslarning joylashtirilishi natijasida kelib chiqqan muammolar masalasi, bundan tashqari Turkiston hududida paxta masalasi, sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirish to'g'risida ma'lumotlar yoritib berilgan.

ОБСУЖДЕНИЕ «ТУРКЕСТАНСКОГО ВОПРОСА» В ДУМЕ И РУКОВОДЯЩИХ ОРГАНАХ

Бахтиёр Болтабаев

PhD, старший преподаватель

Наманганский государственный университет

Узбекистан, Наманган

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: деятельность Думы, вопросы управления, торговля и промышленность, производство, протесты туркестанцев, государственный учёт земель, переселенческая политика России.

Аннотация: В статье рассматривается недовольство местного населения Туркестана деятельностью Думы, политика переселения населения из различных регионов России на территорию Туркестана, проблемы, возникающие при поселении русских на имеющихся плодородных землях. земли в Туркестане, кроме того, дается информация о вопросе хлопководства на территории Туркестана, развитии промышленности и производства.

KIRISH

Ma'lumki, "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomning 270-moddasida mahalliy ko'chmanchi aholi ixtiyoridagi yerlar doimiy foydalanish uchun berilgan. 1910- yilda Yer tuzish va qishloq xo'jaligi Bosh boshqarmasi Davlat Dumasiga 270 moddaga o'zgartirish kiritish uchun qonun loyihasi bilan murojaat qiladi [1]. Unga qarshi pozitsiyani deputat S.N. Maqsudov egallaydi, uning fikriga ko'ra, "qirg'iz (qozoq) yerlarining davlat mulki deb tan olinishini o'ta adolatsiz amaliyot" edi. Sababi, ular tomonidan egallangan yerlar "qirg'iz urug'larining mulki bo'lib, ko'chirish bo'limi ularga tegishli yerlarni haqiqatda tortib olishni boshlashga ruxsat berishimizni taklif qilmoqda... Turkiston ma'muriyati vakillari esa qirg'izlarga faqatgina doimiy huquqni tan olish haqida gapirishmoqda. "O'zimiz uchun do'stlardan dushmanlarni yaratishdan nima foyda", deb bildirgan edi [2].

ASOSIY QISM

Deputat K. B. Tevkelev Dumada Turkistondan kelgan deputatlarning yo'qligiga e'tibor qaratishga undaydi. U hukumat va Duma tomonidan Turkistonning madaniy hamda iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan birorta ham islohot amalga oshirilmaganiga ishora qiladi. Ma'ruzachi ortiqcha deb atalmish narsani belgilashda to'liq o'zboshimchalik borligini ta'kidlar edi.

Ko'pchilik deputatlarni birdaniga o'z yerining egasi bo'lishdan ayrilgan minglab odamlarning taqdiri umuman qiziqtirmas edi. O'lka rus xalqi ichidan "ishonchli element" hisoblangan qatlamlar bilan to'ldirilgan taqdirdagina Turkiston haqiqatan ham qo'shilgan deb hisoblanishi, faqat ushbu holatda ruslar o'zini chinakam "xo'jayin" deb his qilishi mumkin ekanligini ta'kidlardir [3]. Shu bilan birga, K. K. Palenning tekshiruvi Turkistonda muhojirlar

foydalanishi uchun yaroqli bo'lgan yer zaxirasi "ko'p emasligi", ko'chmanchilar tomonidan allaqachon foydalanib kelinayotgan yerlar juda ham kam samaraliligi, asosan paxta emas, faqat don yetishtirish uchun mosligini aniqlagan edi [4].

Ammo, hukumat graf Palenga ham, mahalliy aholi o'rtasida tartibsizliklar va qo'zg'olonlar paydo bo'lishi mumkinligini bashorat qilgan Davlat Dumasi deputatlarining ovozlari ham quloq solmay, o'jarlik bilan o'zini tutishda davom etib kelar edi. Belgilangan yo'nalishning asosiy qoidalarini hayotga tatbiq etish maqsadida bir qator qonun va farmoyishlar chiqarildi. Ulardan biri mahalliy xom ashyo, ya'ni Kavkazorti va O'rta Osiyodan keladigan paxtadan maxsus yig'im olish to'g'risidagi qonun loyihasi edi. Qonun loyihasi 1910- yil fevralda Dumaga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi va ichki bozorga yetkazib berilayotgan 1 pud paxtaning har biridan 50 tiyin undirish taklif qilingan edi. Yig'ilgan mablag'lar asosan Turkistonda sug'orish va gidrotexnika inshootlariga yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Sanoatchilar qonun loyihasini rad etishni talab qilishga muvaffaq bo'ldi. Ikki yil o'tgach, ya'ni 1912- yil yanvarda xuddi ushbu masala Rossiya-Amerika savdo shartnomasini qayta ko'rib chiqish munosabati bilan paydo bo'lganida, ular buni rad etdi. Deputatlarning motivatsiyasi o'ziga xos edi: "bir pud paxtadan qo'shimcha 50 tiyingacha pul olishingiz bir funt javdardan 5 tiyin olish bilan barobar, yer egalaridan qaysi biri qo'shimcha 5 tiyin to'lovga rozi bo'lishi mumkin" – deyishdi [5].

1912- yilda paxta yetishtirish komissiyasi "Turkiston va Kavkazortida paxtachilikni rivojlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirish uchun 230 ming rubl ajratish to'g'risida" taklif bilan chiqdi va u ma'qullandi. Lekin, paxtachilikni rivojlantirish uchun aniq, kelishilgan ish reja zarur edi. Ushbu qonun loyihasida esa bunday narsa nazarda tutilmagan edi [6]. Dumada paxta yetishtirish masalalarini muhokama qilish uchun Rossiya va AQSH o'rtasida paxta yetkazib berish bo'yicha savdo bitimining tez orada bekor qilinishi turtki bo'ldi. Shuning uchun ham Rossiya hukumati va sanoat doiralarini Turkistonda mahalliy paxtachilikni rivojlantirish istiqbollari tashvishlantira boshladi.

Qo'qon birja qo'mitasining 1911- yil hisobotida "Farg'ona va umuman, Turkiston o'shandagina imperiya iqtisodiyotidagi o'z missiyasini bajaradi hamda shundan keyingina u Rossiyaning "gavhari" nomiga munosib qurilishi chindanda qayd etilishi mumkinligi. Qishloq xo'jaligining barcha mavjud kuchi paxtachilik va ipakchilik yo'llanishi zarurligi, Rossiyadan non, yem-xashak, ishlab chiqarilgan mahsulotlar evaziga va Turkistonda paxtachilikning oldinga siljishini to'xtata oladigan har qanday to'siqlarni olib tashlash yagona chora sifatida ko'rsatilgan edi [7].

III Davlat Dumasi ko'chirish ishini o'zining maxsus homiyligi ostiga qabul qiladi. Ko'chirish bo'limi "o'z faoliyatining asosini dehqon ommasini o'z Vatanidan ko'chirmaslik,

balki asosan chekka hududlarni doimiy ravishda joylashtirish va jonlantirish” zarurligini ta’kidlar. Shunday qilib, III Duma rejalashtirilgan va oqilona mustamlaka vositalaridan biri sifatida o’zining ko’chirish siyosatiga bo’lgan nuqtai nazarini ochiq belgilab berdi. Ushbu qoida o’z nutqlarida uchinchi chaqiriq Dumasining ko’chirish komissiyasi rahbari Knyaz Golisin tomonidan bir necha bor ta’kidlangan [8].

1912- yil 7- dekabrda IV Dumaning ko’chirish komissiyasining 33 a’zosi, 11- dekabrda esa uning rahbarligiga P. E. Suvchinskiy saylanadi. Shu bilan birga, koalitsion prezidium ham saylanadi: raisning o’rtoqlari graf I.I. Kapnist ikkinchi (oktyabrist) va V. A. Vinogradov (kadet), kotiblar M. I. Simonov (oktyabrist) hamda A. L. Tregubov (natsionalist) [9]. 1912- yil 14- dekabrda Dumaga “Turkistondagi suvlardan foydalanish to’g’risida”gi qonun loyihasi kiritiladi. Deyarli barcha qishloq xo’jaligini faqat sun’iy sug’orish orqali amalga oshirish mumkin bo’lgan o’lka uchun oxirgi qonun loyihasi ayniqsa muhim edi. Loyiha davlatning suvga bo’lgan suveren huquqini saqlab qolar edi hamda sug’orish inshootlari va suv taqsimoti bo’yicha mahalliy hokimiyat organlarini ham shakllantirgan edi [10]. Birinchi marta suv qonunini o’zgartirish masalasi 1907-yilgi gidrotexniklarning Toshkent qurultoyida ko’tarilgan. Loyiha murakkab va mashaqqatli bo’lib chiqdi va 1909- yil 27- sentyabrda Toshkentda knyaz V. I. Masalskiy rahbarligi ostida amaliy taklif qabul qilinadi. Turkistonni zabt etilishidan beri deyarli o’zgarmagan holda saqlanib qolgan odatiy suv qonuni endi o’lka ehtiyojlarini qondira olmadi. Hukumat Turkiston uchun suv qonuni haqida bir yildan ortiq gapirildi, lekin hech narsa qabul qilinmagan. O’lkada esa suv muammosi hal etilmaganicha qolgan [11].

1914- yil 14- fevralda byudjet komissiyasining yig’ilishi bo’lib o’tdi, unda Ko’chirish ma’muriyatining smetasi muhokama qilindi. Ushbu yig’ilishda deputatlar 40 marotaba ko’chirish smetasi bo’yicha so’zga chiqqan edi, lekin keng ma’noda mustamlakachilik masalalariga esa hech kim to’xtalmagan edi [12].

Deputat N. N. Opochinin Turkistonda rus aholisini joylashtirishning bosh rejasi masalasini ko’tardi. Unda nafaqat umumiy erkin yerlarni egallash maqsadlari, balki yuqori davlat tartibining maqsadlari – chegaralarni mustahkamlash masalasi ham amalga oshirilish ko’zlangan edi. Natijada, deputatlar Ko’chirish ma’muriyatining smetasini 72 ming rublga kamaytirish mumkinligini belgiladi. Jumladan, Yettisuv va Sirdaryo ko’chirish hududlarida gidrotexnik tadqiqotlarni moliyalashtirish 19 mingga qisqartirilish ham ko’zda tutilgan [13]. Ko’chirib kelinayotgan ruslarga “Samarqand viloyati dashtlaridagi davlat mulki bo’lgan sug’oriladigan yer uchastkalarini berish to’g’risida”gi qonun loyihasini muhokama qilish uchun deputatlar ikki marotaba yig’ilish o’tkazadi. Yuqori davlat idoralari yangi sug’oriladigan yerlar, hatto davlat hisobidan ham rus aholi punktlariga berilishini taklif qilinadi [14].

A. V. Krivosheinning 1913- yil 10- mayda Davlat Dumasiga bergan hisobotida xuddi shu narsa haqida gapirgan. Bosh boshqaruvchi Rossiya markaziy guberniyalari dehqonlaridan yangi shakldagi paxta terimchilarini yaratish g'oyasi bilan aqlini band qilgan edi. 1000 rubl miqdorida mulkka ega bo'lgan barcha xristian dini vakillariga ko'chib o'tishga ruxsat berilgan [15].

Musulmonlar o'lkaga kiritilmas edi. Zero, sug'orish uchun pul butun Rossiyadan yig'ilar edi va ularning hududiy yaqinligi tufayli, boy "mahalliy"lar rus ko'chmanchilariga nisbatan "qulayroq mavqe"ga ega bo'lishlari mumkin edi. Kursk viloyatidan deputat, yirik yer egasi, N.Ye. Markov ochiqchasiga e'lon qilgan edi: "Boshqalar uchun (millati rus bo'lmagan Rossiya fuqarolari nazarda tutilmoqda) ikkinchi darajali joy ajratilsa, u yerga boshqalarni ham qo'yib yuborasiz. Endi esa rus xalqini u erga qo'yib yuborasiz, chunki bu begona joyni qaysidir darajada ruslashtirish kerak. Davlat ma'nosida ruslashtirish zarur. Trudovik V.I. Dzyubinskiy unga e'tiroz bildirib: "Mahalliy aholi uning fikricha, mahalliy iqlimga o'rganib qolgan va shuning uchun bu joylarda u eng yaxshi xo'jayin hisoblanadi", degan edi [16].

Musulmon deputatlar o'z navbatida bu qonun loyihasiga norozilik bildiradilar. "Biz chin yurakdan norozilik bildiramiz, - degan edi deputat G.X. Yenikeyev, - Turkiston o'lkasining himoyasiz aholisiga qilingan zo'ravonlikka biz qarshimiz". Kadetlar bilan birgalikda musulmonlar fraksiyasi o'lkaga barcha din va millat vakillarini kiritishni talab qiladi. Yenikeyev to'g'ri ta'kidlagan edi chunki, mulkni cheklovchi talabni joriy etish loyihasining asosiy maqsadi, go'yoki o'z vatanida yerga ega bo'lmagan dehqonlarni barpo etish maqsadiga soya solar edi. "Nima uchun ba'zi kambag'al odamlarni boshqalar hisobidan joylashtirish kerak?" deya, u mantiqiy savol berar edi [17].

Kadet N. N. Shchepkin yerni muhtojlar, ya'ni Turkistonning o'zida yashovchilarga taqsimlash kerak, deb hisoblardi. U Dumadagi deputatlarning mahalliy sharoit va muammolarni mutlaqo bilmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolardan ogohlantirar edi [18]. Komissiyaning xulosasi esa juda aniq edi – yer faqatgina "siyosiy barqaror elementlar"ga berilishi kerak edi [19].

Paxtachilikni yanada rivojlantirish uchun zudlik bilan yangi sug'orish tizimlarini yaratish zarur edi. Ammo, hukumatda mablag' yo'q edi, chunki rus tadbirkorlarining Turkistonni sug'orish uchun sarmoya kiritishga qiziqishi nihoyatda past bo'lib, ishlar oldinga siljimas edi. Davlat strategik manfaatlarini sababli irrigatsiya ishiga chet el kapitali ham jalb etilmas edi, garchi ba'zi ishbilarmonlar o'z xizmatlarini taklif qilishgan bo'lsa ham [20].

1914- yil 7- martda "Imperator Nikolay I kanalida ta'mirlash ishlarini bajarish uchun mablag' ajratish to'g'risida"gi qonun loyihasi Davlat Dumasining qishloq xo'jaligi komissiyasiga kiritildi. Kanal knyaz Nikolay Romanovning o'z mablag'i hisobidan qurilgan

bo'lib, u orqali 7 ming gektar yer sug'orilib, uning qurilishi 1897- yilda yakunlangan [21].

1911- yilda Mirzacho'lning shimoliy-sharqiy qismini sug'orish bo'yicha ishlarni yakunlash uchun mablag' ajratish to'g'risidagi qonun loyihasini ko'rib chiqish mobaynida, Davlat Dumasi "Imperator Nikolay I" kanalining mustaqil qiymatini saqlab qolish va ushbu kanal uchun sug'orish tizimini ishlab chiqish kerakligi belgilaydi.

Dehqonlarning bir qismini ko'chirish yoki ortiqcha yerlarni olib qo'yish iqtisodiy tizimning o'ziga hech qanday ta'sir ko'rsata olmas edi. Rasmiy hujjatlarda ham mansabdor shaxslar ko'pincha bir qator hududlarda mahalliy o'troq qishloq xo'jaligi aholisi orasida ko'chmanchilarga nisbatan dehqon xo'jaligining o'zlari uchun asosiy faoliyat sifatida tan olishlari ajablanarli emas edi [22].

Rus dehqonlari ko'pincha o'zlarini davlat tomonidan tekinga berilgan yerlarda vaqtinchalik ishchilardek his qilishar edi. Yettisuvda ko'chib kelganlar soni 1905- yildagi 2,3 ming kishidan 1910- yilda 6,3 ming kishiga ko'paygan bo'lsa-da, 1910- yilga kelib Sirdaryo viloyatida 7778 nafar, 1908–1909- yillarda Kaspiyorti o'lkasida ko'chib kelganlar soni 121 oilani tashkil qilib, bir qator mualliflar ta'kidlaganidek, Turkistonga ko'chirish siyosati natijasida kelganlar soni miqdoriy jihatdan ahamiyatsiz edi [23].

1912- yili Turkistonga tekshiruv uchun yuborilgan A.V.Krivosheyinni imperator Nikolay II ga yuborgan hisobotiga ko'ra, "rus aholisi bu yerga yo o'zboshimchalik bilan, yerning asl egalari bilan ma'lum shartnomalar tuzib, ko'pincha ularsiz joylashar edi. Yoki 1910- yildan davlat tomonidan olib qo'yilishi qonuniylashtirilgan davlat mablag'lari hisobidan sug'oriladigan yerlarda, 1912- yildan boshlab uyushgan tarzda olib qo'yilgan" va mashhur "ortiqchalik" prinsipi asosida amalga oshirib kelingan [24]. Mustamlakachilikning ushbu oxirgi turi Birinchi jahon urushining boshlanishi tufayli qurish siyosati jarayonining pasayishi tufayli sezilarli darajada kengayishga ulguradi. 1927- yilda V. V. Bartold o'z ishida: "1891–1892- yillarda ko'chib kelayotganlarning hayvoniy ishtahasini hatto Turkistonning eng katta daryosi Amudaryo ham qondira olmadi. Ma'muriyat Amudaryo bo'limida rus aholi punktlari uchun mutlaqo tekin va qulay yerlar yo'qligini ma'lum qiladi va nafaqat ko'chib kelayotganlar, hatto sayyohlarni ham Amudaryoga kiritmaslik to'g'risida buyruq chiqarildi. Shunday qilib, aholi zichligi har kvadrat verstga atigi 2 kishidan iborat bo'lgan hudud mustamlakachilik hududidan chiqarildi [25].

M. K. Lyubavskiyning so'zlariga ko'ra, rus elementining Turkiston aholisiga ahamiyatsiz kiritilishining sabablari, birinchidan, Rossiyaning o'lkada mavjudligi nisbatan qisqa muddatli edi; ikkinchidan, o'lka qishloq xo'jaligining yorqin xususiyatlariga ega edi (iqlim, tuproq, sun'iy sug'orish), bu rus qishloq xo'jaligi massasi ega bo'lmagan ko'nikma va bilimlarni talab qilardi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1911- yilda Turkistonda yashaganlarning umumiy soni 6492653

kishi, shundan ruslar 406607 kishi, ya'ni umumiy aholining 1/15 qismini tashkil etardi [26].

Biroq, o'lkaga rus elementini kiritish hamda hukumat va Davlat Dumasi tomonidan yondashuv bir tomonlama edi. U mustahkam bo'lishi va iqtisodiy jihatdan sezilarli dividendlar keltirishi mumkin emas edi. Turkiston hududlarini mustamlakaga aylantirgan siyosatchilar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, o'lka hududlariga ruslarni olib kelish jarayoni Turkiston o'lkasida yagona imperiyani barpo etilishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Masalan, S. Lurye o'z tadqiqotida mahalliy aholining yangi kelgan ruslar bilan juda sekin assimilyatsiya jarayonini qayd yetadi, bu uning fikricha, rus mustamlakachiligi uchun noodatiy hodisa edi. Rossiya imperiyasida har bir qaram hudud qandaydir moslashuvdan o'tar edi. Bu nafaqat unga imkon qadar butun Rossiya buyruqlari o'rnatilganligi, o'lkada istiqomat qiluvchi aholi bilan ko'chirib keltirilganlar o'rtasida munosabatlar o'rnatilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu masofa rasmiy hokimiyat tomonidan qattiq qo'llab-quvvatlanar edi [27].

Bu borada A. Kaganovich rus ma'murlarining Rossiya Turkiston bosib olingandan so'ng darhol sezilarli iqtisodiy foyda olishi haqidagi hisob-kitoblari amalga oshmadi, deb hisoblaydi [28]. 1916- yilda ko'chirish idorasi hukumat o'zining siyosati tufayli Turkistonda porox bochkasida o'tirganini asta-sekin anglay boshladi. Bu "Vazirlar sakrashi" paytida qishloq xo'jaligi vaziri lavozimini qisqa vaqt ichida A. N. Naumov egallaganida aniq bo'ldi [29], biroq endi kech bo'lgandi. Chunki, 1916- yilning yoz-kuz oylarida o'lkada ruslarga qarshi keng ko'lamli qo'zg'olon boshlangan.

Natijada, Rossiya Birinchi jahon urushiga hal qilinmagan ichki muammolar yuki bilan kiradi. Bu haqiqat albatta, rus armiyasining jangovar qobiliyatiga ham, front orti tomonining kuchiga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki Hukumat safarbarlikni sharqiy hududlardan boshlashga qaror qildi. 1916- yil iyun oyi oxirida Nikolay II tomonidan "Mustamlaka hududlarida barcha fuqarolarga nisbatan davlat mudofasini mustahkamlash maqsadida safarbarlik to'g'risida farmonni imzoladi. Turkistonda farmon rasman e'lon qilinishidan avval e'lon qilinadi. Mahalliy ma'muriyat bunday murakkab va keng ko'lamli tadbirni o'tkazishga tayyor emas edi. Tez orada safarbarlik paytida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar va suiiste'molliklar aniq bo'ladi. Bunga javoban Turkistonning barcha hududlarida ommaviy noroziliklar avj oldi. Ayni paytda Turkistonning ayrim siyosatchilari vujudga kelgan vaziyatga e'tiborni qaratishga harakat qildi. "Туркестанский голос" liberal gazetasi muharriri A. Chaykin, mahalliy jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri M. Cho'qayev Toshkent front ortiga ishchilar yollash qo'mitasi raisi U. Xo'jayev Petrogradga jo'nab ketadi. Ular Andijon shahrining vakolatli

aholisi bo'lgan holda, deputatlardan viloyatga kelib, mahalliy aholini front ortiga mehnatga jalb qilish ishlari qanday ketayotganini joyida bilib olishlari, shuningdek, Dumaga harbiy xizmatga chaqirish to'g'risidagi farmonni bekor qilish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Положение об управлении Туркестанским краем 12 июля 1886 г. – СПб., 1886. – С. 48.
2. Котюкова Т.В. Русский Туркестан накануне войны. <https://cyberleninka.ru/article/n/arhivnye-dokumenty-o-sotsialno-ekonomicheskom-polozhenii-turkestana-v-nachale-hh-veka/viewer>
3. Гинзбург А. И. Переселенческий вопрос в Туркестане в конце XIX – начале XX вв. Дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1966. – С.106
4. Пален К. К. Отчет о ревизии в Туркестанском крае. (Переселенческое дело в Туркестане). – СПб., 1910. – С. 37.
5. История народов Узбекистана. Т. 2. – Ташкент, 1947. – С. 394.
6. Государственная дума. Стенографические отчеты. Созыв третий. Сессия V. – СПб., 1912. Т. 3. – С. 370.
7. Кокандский биржевой комитет. Отчет за 1911 г. – Коканд, 1912. – С. 57.; Хайдаров М.М. Архивные документы о социально-экономическом положении Туркестана в начале XX века. –С.2. (1-6). <https://cyberleninka.ru/article/n/arhivnye-dokumenty-o-sotsialno-ekonomicheskom-polozhenii-turkestana-v-nachale-hh-veka/viewer>
8. Вопросы колонизации. – СПб., 1914. – №14. – С. 18–20.
9. Мамаев А.В. Проблемы экономического развития Туркестана в работе IV Государственной думы. //Клио. №11(143). 2018. –С.74 (73-82)
10. Обзор деятельности комиссий и отделов в Государственной думе 1911–1912 г. – СПб., 1912. – С. 15.
11. Гинс Г. К. Действующее водное право Туркестана и будущий водный закон / Отчет по Переселенческому управлению по командировке летом 1909 г. в Семиречье. – СПб., 1910. – С. 74–75.
12. Аян Аден. От переселенческой политики до Туркестанского восстания 1916 года. Часть 2. <https://e-history.kz/ru/news/show/339184>
13. Обзор деятельности комиссий и отделов в Государственной думе 1911–1912 г. – СПб., 1912. – С. 17–23.
14. Туркестанский курьер. 1912 г. 26 ноября.
15. ЎзМА. И-7-жамғарма. 1-рўйхат. 5197-йиғма жилд, 104–111-варақлар.

16. Мамаев А. Имперский проект заселения Голодной степи. // Quaestio Rossica · Vol. 7 · 2019 · № 4, -С. 1270 (1259–1274)
17. Котюкова Т. «Право», которого не стало: Политическая дискуссия о туркестанском представительстве в Государственной думе. <https://www.fergananews.com/articles/7237>
18. Государственная дума. IV созыв. Стенографические отчеты 1913. Сессия V. Часть III. Заседания 55–81. – СПб., 1913. – С. 2287–2318.
19. Вопросы колонизации. – СПб., 1914. – №14. – С. 23.
20. Галузо П. Г. Туркестан – колония.... – С. 110–111.
21. Масон М. Ташкентский Великий князь. Из воспоминаний старого туркестанца... – С. 114–125.
22. Ямзин И. Л., Вошинин В. П. Учение о колонизации и переселении. М.–Л., 1926 – С. 66.
23. Любавский М. К. Обзор истории русской колонизации с древнейших времен и до XX века. – М., 1996. – С. 527; Шарова П. Н. Переселенческая политика в Средней Азии // Исторические записки. – 1840. – №8. – С. 31–34.
24. Брежнева С.Н. Отражение идеи аккультурации в переселенческой политике Российской империи в Туркестане на рубеже XIX–XX вв. // Вестник РУДН. Серия: ИСТОРИЯ РОССИИ. 2018. Т. 17. № 3. -С. 628-629. (608–638). <https://cyberleninka.ru/article/n/otrazhenie-idei-akkulturatsii-v-pereselencheskoy-politike-rossiyskoy-imperii-v-turkeстане-na-rubezhe-xix-xx-vv/viewer>
25. Бартольд В. В. Указ. соч.... – С. 153.
26. Любавский М. К. Обзор истории русской колонизации с древнейших времен и до XX века. – М., 1996. –С. 527.
27. Лурье С. Особенности русской колонизации в Средней Азии // Центральная Азия и Кавказ. – 1997. – №2. (8). – С. 20–24.
28. Каганович А. Некоторые проблемы царской колонизации Туркестана // Центральная Азия и Кавказ. – 1997. – №5 (11). – С. 117–120.
29. Жемчужников Н. Н. Движение на Восток. – М., 1927. – С. 31.